

## 70-80-Yillar O‘zbek She’riyatida “San’at” Mavzusi (Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Rauf Parfi She’riyati Misolida)

*Maxmudov Sardorbek<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** 70-80-yillarda o‘zbek she’riyatida san’at mavzusi yangi g‘oyaviy-badiiy bosqich sifatida shakllandi va keng qamrovli yondashuv kasb etdi. Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Usmon Azim va Rauf Parfi ijodida san’at va she’riyatning sintezi orqali insoniy kechinmalar, ijtimoiy masalalar va falsafiy mulohazalar ifodalandi. She’riyatda tasviriy san’at, musiqiy ohang, teatr va kino kabi turli san’at turlari lirik obrazlar vositasida uyg‘unlashtirildi. Shoirlar ijodida san’at mavzusi nafaqat estetik qimmatga ega bo‘ldi, balki inson ruhiyati va jamiyat holatining aks-sadosi sifatida ko‘rinish oldi. Ushbu davr she’riyati san’at vositalaridan foydalangan holda yangi obrazlar, shakllar va g‘oyalarni o‘z ichiga olgan murakkab va serqirra hodisa sifatida yuksaldi.

**Kalit so‘zlar:** San’at, she’riyat, sintez, tasviriy san’at, musiqa, teatr, ijodkor, lirik qahramon, falsafiy mulohaza.

Har bir adabiy davrning o‘z ko‘rinishi, o‘ziga xosligi, boshqa davrlardan farqi bo‘ladi. U yerdagи hodisalar, ijtimoiy ong, ijtimoiy tafakkur o‘zidan oldingi adabiy avlodlardan farqli, albatta. Adabiyot tarixidan ma’lumki, san’at she’riyat uchun doimiy mavzu bo‘lib kelgan, chunki shoirlar ko‘pincha o‘z subyektiv his-kechinmalari va mulohazalarini ifodalashda turli san’at turlariga murojaat qilganlar. San’at va she’riyatning bir-biriga yaqinlashuvi va kesishuvi salmoqli va ko‘p qirrali mavzu bo‘lib, u nafaqat rasm va haykaltaroshlik kabi tasviriy (vizual) san’atni, balki raqs, musiqa, teatr va kino kabi sahna san’atlarini va hatto adabiy asardagi badiiy (obraz) qahramonlarni ham qamrab oladi. She’riyatdagi san’at mavzusi ko‘pincha shoirlar ijodiy tabiat, badiiy ifodaning betakrorligi, hissiy yukning og‘irligi, metaforiklik va assotsiativlikning maromida qo‘llanilishi bilan alohida qiymatga ega. Shu bilan birga, san’at mavzu sifatida shoirlarga murakkab insoniy tajribalarni – tiriklik va o‘lim, kurash va matonat, mag‘lubiyat va g‘alaba kabi mulohazalarini yuritishga va hayotning o‘tkinchi tabiat bilan kurashishga imkon beradi.

Ma’lumki, ijodkor badiiy-estetik tafakkurida dunyoqarash o‘zgarmaguncha she’riyatdagi yangi bir adabiy avlodning bo‘y ko‘rsatishi muammoli masalaga aylanadi. Adabiyotshunos Y. Qosimov aytganidek “Adabiyotdagi har qanday yangilik, eng avvalo, uning qahramoni tabiatidagi o‘zgarishdan boshlanadi. Yangi qahramon bu – badiiy estetik fikr taraqqiyotida navbatdagi bosqich degani. Aniqrog‘i, yangi qahramon badiiy jarayondagi sifat o‘zgarishining ilk ko‘rsatkichi adabiy harakatdagi barcha tozarish va siljishlarning boshlang‘ichidir. So‘z san’atida yangicha ijodiy-estetik prinsip va normalar hamisha yangi qahramon xarakterining taqozosи bilan shakllanadi” [4, B. 15]. Yangi qahramon yaralishi, she’riyatdagi shakl va mazmundagi o‘zgarishlarni Cho‘lpon ijodidan boshlab o‘rganish, nazarimizda keyingi avlodlar she’riyatidagi yangicha uslublar va mavzularning boshlanish debochasi hisoblanadi. Masalan, Cho‘lponning 1921-yilda yozilgan “Satang” nomli she’rida shoir lirik qahramonni tafsiflash emas, balki rassom kabi chizishga urinadi:

*Qop-qora sochidan ikkita gajak*

*Buralib-buralib yuziga tushmish.*

*Qolganlari yana bo ‘lakma-bo ‘lak*

<sup>1</sup> Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi



*Belidan ilondek yerga cho 'zilmish.*

*Uning yuzlarida boshqa qizlardek*

*Ketsiz qayg‘ularning izlari yo ‘qdir.*

*Balki, erkda o ‘skan erka qizlardek*

*To ‘lg‘in yuzlarida doim sho ‘xlikdir*<sup>2</sup>

Adabiyotshunos S. Quronov “Zamonaviy o‘zbek adabiyotida sintez muammosi” nomli dissertatsiya ishida ushbu she’rni quyidagicha tahlil qiladi: “Shoir qahramonning xarakteri va his-tuyg‘ularini bevosita uning qiyofasi tasvirida berishga harakat qiladi. U qizning yosh ekanini (*Ketsiz qayg‘ularning izlari yo ‘qdir*), harakatida ayyorlik, jodugarlik borligini (*Belidan ilondek yerga cho 'zilmish*), hayosizligini (*To ‘lg‘in yuzlarida doim sho ‘xlikdir*) shunchaki so‘z vositasida aytib qo‘yishdan tiyiladi” [6, B. 55]. Musavvir yaratayotgan portretida insonning shunchaki qiyofasini yaratmaydi, balki uning xarakteri, ruhiyati, boringki, ichki dunyosini ham ochiqlashga urinadi. Rangtasvir san’atini tushungan tomoshabin esa musavvir portretga singdirgan kayfiyat va ruhiyatni sinchilik bilan kuzatish orqali his etadi. Rangtasvir san’atida butun-qism munosabati asosida, avvalo, obrazni bir butun holda ko‘riladi, so‘ngra butundan qismiga qarab yurish orqali tugal tushuncha hosil bo‘ladi. Cho‘lpon qalamga olgan “Satang” she’rida musavvir chizgan suratni qisimdan butunga tomon tasvirlab boradi. Bu esa o‘qiguvchi ongida portretdagidek bir butun ayolni tomoshabin ko‘z oldida gavdalanishiga asos bo‘ladi.

Shoirning 1925-yilda yozilgan “Galdir” nomli she’rida she’riyatning musiqaga yaqinlashuvini ko‘ramiz:

*Men dutor birla tug ‘ishgan, ko ‘hna bir devonaman,*

*Ul tug ‘ushgonim bilan bir o ‘tda doim yonaman.*

*Dillarida g ‘am to ‘la bechoralarga yorman,*

*Vaqti xush, g ‘am ko ‘rmaganlardan doim bezorman.*

*Men dutorning har yeriga berkinib olsam agar,*

*Pardalarning har biri bergay bo ‘lak g ‘amdin xabar*<sup>3</sup>.

“Galdir” xalq qo‘shiqlaridan biri, dutor torlari birla taraluvchi ohang inson ichki dunyosidagi – ko‘ngilning tubida yashiringan dardlarga malham kabi singib, darddosh inson kabi qalb jarohatlariga malham surtadi. Shoir kechinmalari dutor torlаридан yangrayotgan ohang bilan qorishadi. Uning qalb qo‘rida qaynayotgan og‘riqlar va g‘amlar dutordan munglig‘ kuy bo‘lib taraladi. Shoir o‘zining bu sirdoshini inisidek ko‘radi (*Men dutor birla tug ‘ishgan, ko ‘hna bir devonaman*), tug‘ishgan og‘ainilardan birining salomatligi yomonlashishi bir qorindan talashib tushgan ikkinchisiga ham ta’sir o‘tkazadi, ya’ni Cho‘lponning og‘riqlari dutor pardalarida ham aks etadi (*Ul tug ‘ushgonim bilan bir o ‘tda doim yonaman*), she’rning sarlavhasiga ko‘ra kuyning o‘zi ham dardli nolalar ila yaralgan. Bu dardni esa holi parishon bechoraligini his etadi (*Dillarida g ‘am to ‘la bechoralarga yorman, Vaqt xush, g ‘am ko ‘rmaganlardan doim bezorman*), dutor parda (notalari)ning har biri o‘ziga xos tovush chiqaradi, cholg‘uchi esa ularni tartibi bilan qo‘llashi orqali muayyan kuy yaraladi. Shoir qalbidagi har bir mungni o‘sha pardalardan chiqayotgan nolalardan topamiz (*Men dutorning har yeriga berkinib olsam agar, Pardalarning har biri bergay bo ‘lak g ‘amdin xabar*).

XX asrning 20-30-yillarida bu kabi she’riyatidagi yangilanishlar davr nuqtayi nazri bilan mukammallahib bordi. Masalan, Abdulla Oripov ijodida she’riyat va musiqaning uyg‘unlashuvini anchayin mukammallahgan qiyofada ko‘ramiz. Uning 1964-yilda yozilgan “Munojot”ni tinglab...” she’rida musiqaning she’riyatga ta’siri o‘ziga xos shaklda ifodalanadi:

<sup>2</sup> Cho‘lpon. Asarlar. 1-jild. – T.: Akademnashr, 2013. – B.120.

<sup>3</sup> Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. – T.:G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – B.518



*Qani, ayt, maqsading nimadir sening,  
 Nega tilkalaysan bag 'rimni, ohang,  
 Nechun kerak bo 'ldi senga ko 'z yoshim,  
 Nechun kerak, rubob, senga shuncha g 'am.  
 Eshilib, to 'lg 'onib ingranadi kuy,  
 Qaylardan tug 'ilmish bu ohu faryod.  
 Kim u yig 'layotgan? Navoymikin  
 Va yo may kuychisi Xayyommikin, dod!*<sup>4</sup>

San'at turlari orasida musiqaning she'riyatga yaqinligi ustunroq. Avvalo, bir kuy o'laroq har shoirning yuragini junbishga keltirgan "Munojot" vaqt o'tishi bilan yangi bir kompozitsiyaga ega bo'ldi. Ya'ni qayta yaralish ushbu kuyni she'riyatga chambarchas bog'ladi. Navoiyning "Kelmadi" radifli g'azali bilan to'ldirilgan bu qo'shiq musiqa va she'riyatning qo'shilishidan bir butun san'at hodisisi yaralishini ko'rsatib berdi. Shu bilan birga "Munojot" nafaqat she'riyatga, balki musiqa san'atining o'ziga ham katta ta'sir o'tkazdi. Boisi yangi-yangi kuylarning yaralishiga sabab bo'ldi. Masalan, Dadaxon Hasanov "Munojotni tinglab" yoki Shereli Jo'rayevning "Munojotni tinglab" nomli qo'shiqlari ayni yuqoridagi kuyning ta'siri natijasi edi. A. Oripov "Vaqt mashinasi" ko'rsatuvida nasr, nazm va musiqaning o'zaro bir-biri bilan aloqasi va buning natijasi haqida so'z yuritar ekan "...she'rni bir qanoti o'zi bo'ladigan bo'lsa, agar u ashulaga aylansa, uning ikkinchi va juda qudratli qanoti bu – musiqa bo'ladi. She'r bilan musiqani o'zi aslida ikkalasini xamirturushi bir joydan, tuprog'i bir joydan olingen buni. Ya'ni eskitdan aytildiki, shoir she'r bilan, inson bolasi she'r bilan ya'ni so'z bilan o'zining dilidagi gaplarni ifodalashga urinadi. Agar so'z, qora so'z kuchsizlik qilib qolgan taqdirda (ya'ni proza demoqchi, nasr) keyin nazmga o'tadi deydi. She'rga o'tadi. She'rda ham agar dardini to'kolmagan taqdirda so'zlamasdan keyin musiqaga o'tib ketadi" [17], deydi. So'zlar bilan ifodalay olmagan dardlarini, shoir ohanglarda topadi (*Qani, ayt, maqsading nimadir sening, Nega tilkalaysan bag 'rimni, ohang*), rubob notalaridan chiqayotgan kuy esa shoirni mutlaq qalbining tubidagi dardlarini qo'zg'aydi, ko'ziga yosh keltiradi (*Nechun kerak bo 'ldi senga ko 'z yoshim, Nechun kerak, rubob, senga shuncha g 'am*), shoir ruhiyatidagi ingroqni, bo'g'zida qotgan bir og'riqni his etadi, bu kuy uni mast qiladi (*Eshilib, to 'lg 'onib ingranadi kuy, Qaylardan tug 'ilmish bu ohu faryod*), bevosita o'zining ma'naviy ustoz - Navoiyning ruhiy olamini kezganday, Xayyomga darddosh bo'lganday harorat sezadi (*Kim u yig 'layotgan? Navoymikin Va yo may kuychisi Xayyommikin, dod!*). Misradan misraga ma'no o'sib borishi o'qiguvchida qiziqish uyg'otadi: "Bu qanday kuyki, shoirni bunchalar izardiroba salsa?" keyingi bandda esa shoirning qalb prizmasidan kechayotgan hissiyotlar girdob kabi o'qiguvchini o'z domiga tortadi (*Bas, yetar, cholg'uchi, bas qil sozingni, Bas, yetar, ko'ksimga urmagil xanjar, Nahotki dunyoda shuncha g 'am bordir. Agar shu «Munojot» rost bo'lsa agar. Agar aldamasa shu sovuq simlar, Gar shul eshitganim Bo 'lmasa ro 'yo. Sen beshik emassan, dorsan, tabiat, Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!*) Mumtoz adabiyotimizda lirik qahramonni Majnunga aylanishi va dard-sitam chekishiga yor visoli sabab bo'lsa, bu davr she'riyatida lirik subyekt musiqa, rangtasvir, teatr, kino kabi san'at turlari yaratgan shoh asarlar orqali o'zinig jununvash qalb kechinmalarini ifodalashga urinadi. A. Oripov she'riyatida san'at mavzusi ko'lami kengayadi. Masalan, "Noma'lum qiz suratiga", "Munojotni tinglab", "Qani nay ber menga, do'stginam", "Dorboz", "Otello", "Nay", "Qo'shiq", "Yosh rassomlarga"<sup>5</sup>, "Ranglar", "Aktyor"<sup>6</sup> kabi she'rlerida san'atning bir qancha turlariga murojaat qilgan holda o'z his-tuyg'ularini ifoda etganini ko'ramiz. 50-60-yillar she'riyatida san'at mavzusiga murojaat qilish ko'lami kengaygan bo'lsa, bu jarayon 70-80-yillar she'riyatida pishib-yetildi. Butunlay yangi bir ohang, yangicha obraz va mavzularning kirib kelishi yangi adabiy avlodning she'riyatga kirib kelgani bilan baholandi.

<sup>4</sup> Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T.: G'afur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – B.47.

<sup>5</sup> Oripov A. Tanlangan asarlar. 1- jild. – T.: G'afur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.

<sup>6</sup> Oripov A. Tanlangan asarlar. 2-jild. – T.: G'afur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 20001.



70-80-yillarga kelib yangi qahramon va mavzularning yaratilishi ijtimoiy-siyosiy, ijodkorning ma'naviy-ruhiy holatiga bog'liq tabiiy jarayon o'lar oq maydonga keldi. Bu tabiiylikning mohiyati shuki, ushbu davrda boshqa san'at turlari (teatr, rangtasvir, musiqa, haykaltaroshlik, sirk va h. k) ijtimoiy hayotda muhim o'rinnegallagan, buning natijasida san'at turlarining bir-biriga yaqinlashuvi (sintezlashuvi) yaqqol ko'rinish qolgan edi.

XX asrning 70-80-yillar o'zbek she'riyatida yangicha va alohida bir g'oyaviy-badiiy bosqich shakllandi, lirikada mavzular ko'lami kengaydi. Buning in'ikosi esa san'at turlaridagi siljishlar va ularning o'zaro ta'sirlashuvi natijasi edi.

Boshqa san'at turlarining adabiyot bilan yonma-yon tarzda rivojlanib, o'sib borishi va yangilanishi, albatta, shoir qalbida aks-sado bermay qolmaydi. 1914-yildan teatr sahnalari vujudga kelishi va rivojlanib borishi, jahon durdona asarlarining yurtimizda sahnalashtirila boshlangani ijodkor dunyoqarashiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Va bu jarayon rangtasvir, musiqa, kino kabi san'at sohalarida ham kuzatildi. Buning natijasida 70-80-yillar o'zbek she'riyatidagi san'atning boshqa turlaridan ta'sirlanib yozilgan she'rlar salmog'i ancha kengaydi. Shu sababli bu kabi she'rlarni ma'lum bir guruhlarga bo'lib o'rganishni ma'qul topdik:

1. Umumiyyat haqida;
2. San'at turlari haqida;
3. San'atkori haqida;
4. Ijodkor haqida;
5. San'at asari haqida;
6. Asar qahramoni haqida yozilgan she'rlar;
7. She'riyatning boshqa san'at turlariga ta'siri.

#### I. Umumiyyat haqida.

70-80-yillar shoirlari ijodiga yuzlanadigan bo'lsak, san'at tushunchasiga har bir ijodkor o'zicha yondashadi. Masalan, Xurshid Davronning "San'at"<sup>7</sup> nomli she'rida :

*Xona sovuq. Xontaxta uzra*

*Bo'm-bo'sh shisha unda oy aksi*

*Va burchakda turibdi muzlab*

*Oq bo'zdagi g'amgin qiz rasmi.*

Yunon faylasufi Volter "rassomchilik soqov she'riyat, she'riyat esa so'zlovchi rassomchilikdir" [15, B. 67], - degan edi. She'rning ilk misrasidan shoir o'qiguvchi nigohini bir xonaga qaratadi va ko'rishimiz kerak bo'lgan har bir holatni bo'rtiq ranglar bilan tasvirlaydi. Birinchi bandda tasvirlangan chizgilar bevosita kitobxon ko'nglida sovuq bir hijillik uyg'otadi (*Derazada muzdan qatqaloq*), so'ngra shoir o'sha sovuq xonada yig'lab o'tirgan rassom "chizgi"sini "chiza" boshlaydi (*Rassom yig'lar ko'zlar xira*), shoirning bu yo'sin tasvirlashi, o'qiguvchi ko'z o'ngida o'sha rassomning shaxs sifatida jonlanishi va ruhiyatini his qilishiga sabab bo'ladi (*Uni qynar olis xotira – Mo'yqalamda yashagan titroq*), she'rning boshidan xonani qism va qism tasvirlanib borilishi: bir butun xona, u yerdagi detallar, sovuqlik, rassom va ijod jarayoni; bularning bir fokusga jamlanishi, she'riyatni rangtasvirga yaqinlashtiradi (*Taqdir kechar shunday hamisha – Xona sovuq, qotib qolgudek, Qotgan nonu bo'shagan shisha Va dunyoga kelgan mangulik*). San'atning qay turi bo'lmassisin ijod jarayoni ijodkorni shu kabi titroqqa, qynoqqa solmay qo'ymaydi, undagi ijodiy bo'shanish hissi [5] yangi bir asarning tug'ilishi va mangulikka muhrlanishiga sabab bo'ladi. She'rda umumiy san'at turi haqida yozayotgan shoir boshqa san'at turlarining tasvir vositalaridan mohirona foydalanganini ko'rishimiz mumkin.

<sup>7</sup> Xurshid Davron Bolalikning ovozi. – Toshkent: G'afur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – B.9.



Ya’ni kino va rassomlikka xos tasvirlash yo‘sini yaqqol ko‘rinib turibdi. Shavkat Rahmon esa “San’at” nomli sherida:

*Sodiq qoldim tabiatimga,  
yashamadim yuz xil turlanib –  
ko‘rgan edim bir paytlari  
himoyasiz atirgullarni.  
  
Garchi gullar ko‘rkini to‘kib,  
qovjiratib to‘zg‘itsa-da kuz,  
atirgullar ichiga o‘tkir  
pichoqlarni joylayman hanuz.*<sup>8</sup>

“Yigirmanchi yillarning alg‘ov-dalg‘ovlarini, o‘ttizinchi yillarning shafqatsiz qatli om va qirg‘inlarini, qirqinchi yillarning qonli qironlarini va nihoyat, omonsiz mustabidning o‘limdan keyingi – elliginchilarning o‘rtalaridagi suronlarini, jamiyat hayotida ro‘y bergen ulkan portlashlarni o‘z ko‘zlar bilan ko‘rgan, bevosita boshidan kechirgan donishmand san’ator” [4, B. 22] hayot yo‘lini ko‘rgan va his etgan Shavkat Rahmon mustabid tuzum san’atni qanchalik o‘z mafkurasi yo‘lidan yurishga majbur etmasin qurib qovjirasa-da, o‘z tabiatiga sodiq qolishini, shoir esa uning ichiga o‘tkir pichoqlari – she’rlarini joylashdan charchamasligini aytadi. X. Davronning avvalda berilgan she’rida rangtasvir va kino san’atiga xos jihatlardan ustalik bilan foydalangan bo‘lsa, Sh. Rahmon san’atning mohiyati, mavjudligi va yashash tarziga ko‘proq urg‘u beradi. Har bir ijodkorning o‘z tafakkuri tarzi va dunyoqarashi bor, albatta.

Rauf Parfi “San’at tushunchasi” nomli she’rida musavvirlilik va shoirlikni parallel qo‘ygan holda tasvirlaydi: “*Ikki askar. Ikki xil harbiy kiyim. Ikki rang. Birining o‘q tovushlaridan quloqlari kar. Yotar, xotinini ko‘rar tushida. Boshqasi jim. Qabr – uyi. Tirik mazmun. Oq. Oq.*” Rassomlik va she’riyatni askarga mengzagan shoir, san’at ham o‘z xalqini askar kabi himoya qilishga, yaralariga malham va doim uyg‘oq bo‘lishga chorlovchi kuch deya tasvirlaydi. Bu yo‘lda laxta-laxta qoni to‘kilsa-da, oilasi, ayoli va farzandlaridan judo bo‘lsa-da, o‘z yo‘lidan qaytmaydi. Rassom esa sukunat ichidagi hayqiriqni yaratadi. Qabriston kabi sokin, ammo, ko‘rganingda chuqur xo‘rsiniq, qalb qo‘ringda bir og‘riq, ongda chalkash xayollar chuvalashadi, nimadir muhim narsani yo‘qotib qo‘ygandak sukulga tolasan kishi. Ha, bu ikki xil kiyimdagи ikki askar; maqsadlari bir, ammo, yo‘llari, usullari boshqa.

## II. San’at turlari haqida

O‘tgan asrning 70-80-yillari o‘zbek teatr san’ati uchun yangiliklarga boy bo‘ldi. Ushbu davrdagi sahna asarlarida janr xilma-xilligi va milliy madaniyatga bo‘lgan e’tibor kuchayadi. Masalan, ushbu davrdagi “Kelinlar qo‘zg‘oloni” (S. Ahmad), “Qiyomat qarz” (O‘. Umarbekov), “Oltin devor” (E. Vohidov), “Shohi so‘zana”, “Ayajonlarim” (A. Qahhor) kabi spektakllar sahnalaشتirildi. Bu jarayonlar bevosita she’riyatning teatrga yaqinlashuvini yanada tezlashtirgan edi. Adabiyotshunos olim V. G. Belinskiy ta’biri bilan aytganda: “Kishini mashg‘ul etgan, to‘lqinlantirgan, shodlantirgan, qayg‘uga solgan, zavqlantirgan, tinchitgan hayajonlantirgan nima bo‘lsa, qisqasi, subyektning ma’naviy hayotini tashkil qilgan hamma narsa, subyekt ichiga nima kirsa, unda nima paydo bo‘lsa, shularning barchasini lirika o‘zining qonuniy boyligi kabi qabul qiladi. Mavzu bu yerda o‘z-o‘zicha qimmatga ega emas, hammasi subyektning unga bergen ahamiyatiga bog‘liq, hamma narsa xayol va sezgi bilan mavzuga kirgan ruhga bog‘liq” [14, B. 184-185]. Ushbu davrga kelib 70-80-yillar avlod shoirlarining ijodiy-badiiy tafakkuri yangi bir “o‘zan” ochdi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi har bir jarayon ijodkor aql va ko‘ngil prizmasidan o‘tmay qolmaganidek, teatrning bu kabi rivoj topishi she’riyatda ham o‘z aksini topdi. Usmon Azim “Teatr” nomli she’rida teatr va tomoshabin nigohidagi tasavvur va taassurotlarini, qalbidagi hissiyot va tug‘yonlarini mohirlilik bilan tasvirlaydi:

<sup>8</sup> Shavkat Rahmon Abadiyat oralab. – Toshkent: “Movarounnahr” nashriyoti, 2012. – B.265.



*Bu yerda o'zлari uchun yig'lamas.  
Bu yerda yig'latar birovning dardi.  
Bu yerda birovning g'ami muqaddas,  
Bu yerda tabarruk o'zganing qadri.*

*Eski palto kiygan, mangu piyoda  
San'at bu sahnada qilar qo'zg'alon.  
Yurak baxsh etmoqchi bo'lar dunyoga,  
Qalblarga – xo 'rsinmoq uchun bir imkon.* <sup>9</sup>

70-yillar ijtimoiy-siyosiy hayotda bir muncha turg'unlik va o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa-da, o'zbek xalqining paxta dalalarida kechayotgan chirkin hayoti hamon o'sha-o'sha davom etayotgan edi. Kunlik og'ir mehnat qozonida qaynayotgan inson tarixi, buguni va kelajagi haqida chuqr o'yga tolarmikan?.. bu kabi o'ylar surishiga imkon bormikan?.. kunlik mayda tashvishlar inson ong-u shuurini ham mayda o'y-xayollarga ko'mmasmikan?.. mayda muammolar, bir xil mehnat bilan o'tayotgan kunlar, bitayotgan umr, boy berilayotgan kelajak... shoir shuning uchun ham (*Bu yerda o'zлari uchun yig'lamas. Bu yerda yig'latar birovning dardi*) San'at esa eski paltosi bilan, mangu piyoda yurishga mahkum bo'lgan bo'lsa-da o'z isyonini yashirmaydigan obraz sifatida tasvirlaydi. Doimiy siquvlar, quvg'in va qatllar, vulgar sotsiologizmning hukmron mafkurasi kabi sof san'atning tomirini quritishga bo'lgan harakatlardan o'zligini saqlab kela olgan san'at endi o'z missiyasiga yanada kuch bergen edi (*Bunda o'z bo'yini o'lchaydi zamon – orqaga qaytdimmi ketdimmi olg'a? Oqchorloq qoniga belanar hamon, Olchazor oralab taqillar bolta*). Mahmudxo'ja Behbudiy aytganidek "Teatr bu – ibratxonadir". Bunda har bir inson o'zligini anglashga, zamonasi ahvolining ochiq yuzini ko'rishga qodir. Usmon Azim qalamga olgan "Oqchorloq" qushi esa Richirt Baxning "Oqchorloq Jonatan Livingston" asaridagi qush obrazi bilan tanish. "Kundalik mayda g'am-tashvishlarda – baliq ichak-chavog'iyu non ushoqlari uchun talashib-tortishib kun o'tkazishdan ko'ra, cheksiz mashaqqat chekib bo'lsa-da, yuksak parvoz san'atini puxta egallash ishtiyoqida yongan Oqchorloq Jonatan, ayniqsa, o'tgan asr ikkinchi yarmidagi g'arb yoshlariga ulkan bir ibrat namunasi, insoniy komillikkda da'vatday ta'sir etgan edi" [16]. Shoir she'ridagi har bir obrazga, har bir detalga ma'no yuklaydi. Misradan misraga, banddan bandga ma'no o'sib boradi: *Sachrab uyg'onadi mudragan dilim, Semiz orzularni parchalab tashlar. Uyimga kelaman! Yozuv stolim, Teatr, sen kabi lovullay boshlar.*

Yuqoridagi bandda shoir lirik subyektning ma'naviy olamini yoritib beradi. Insonni razolat-u zalolatga yetaklagan semiz orzular aslida naqadar ahamiyatsiz ekanligini tushunib yetgan lirik qahramon o'zligini anglash, buguni va ertasi haqida o'ylar surish bilan unutib qo'yilgan "men"ini qayta topadi. Shoir teatr va lirikani bir fokusga keltirish bilan yangicha bir yondashuvni vujudga keltiradi. Kitobxon she'rni mutolaa qilish jarayonida o'zini teatrda o'tirgan kabi his etadi, lirik subyekt qalbidagi quvonch va nadomatlarni birga his etadi. Ikki san'atning sintezlashuvi shu nuqtada yaqqol ko'rindi.

Ikki yarim ming yil muqaddam Sharqda paydo bo'lgan dorbozlik san'ati o'tgan asrimizda ko'ngilochar tomoshalarning faol turidan biriga aylangan edi. Undagi nozik va murakkab harakatlar dorbozlikni o'ziga xos san'at turi sifatida dunyoga tanitdi. Usmon Azim dorboz obrazini o'z she'rida qayta yaratadi va dorbozning ichki olamini o'z bo'yoqlari bilan chizadi. Chizgilarda esa insondagi ulug' fazilat - jasorat tuyg'usi naqadar muhim ekanligini anglash mumkin:

*Sizlar – pastdasizlar. "Men-chi – dordaman.  
Sizlar – tomoshabin. Men esa – dorboz.  
Hatto langarni ham yerga otaman –  
Qo'limni qo'rquvdan aylayman xalos.*

<sup>9</sup> Usmon Azim Tanlangan asarlar I. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – B.183.



*Mahorat talabi – ko ‘zni bog ‘ladim,  
Falakning toqida yagona yo ‘l – dor.  
Bir asror ma ’nosin nogoh angladim:  
Bir marta o ‘lim bor, ming tug ‘ilish bor.* <sup>10</sup>

Usmon Azim she’riyatida tagma’no kesatiqlar va zaharxandalik shoir uslubining o’ziga xos jihatlaridan biridir. Aytmoqchi bo‘lgan gapini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazmaydi. Poetik fikrlarini har bir detaldan obrazgacha singdiradi. Bevosita dorboz obrazida nozik qochirim bor. Insonni qullik, qiyinchilik, dard-u hasrat, kasallik va qashshoqlik kabi og‘ir sinovlardan ham yuqorida tura olishiga uning iymoni asos bo‘ladi. Bas, dorboz obrazida ayni iymon bor. Bu iymon uni qo‘rquvdan ham hadikdan ham yuqoriga qo‘yadi. “*To ‘rtta tarafim ham Boradi qochib... Yer esa qattiqdir... Qattiq... O ‘limday! Qalbimni, olomon, qo ‘lingga ol-chi, Endi ayt, yuksaklik bormi ko ‘nglimday?*” Bu murojaat o‘tkir kesatiq bilan xalqqa emas olomonga yo‘llanmoqda.

*Yordam berolmaysan, do ‘st muvozanat!  
Arqon yo ‘q... Havoga qadam tashlayman.  
Dordan to yergacha necha asr, vaqt?  
...Shu uzun umrimda yashay boshlayman.*

“Haqiqiy poeziya yuzada yotgan narsani, siyqa haqiqatlarni, jo‘n fikrlarni shunchaki qayd qilishdan yoxud balandparvoz hayqiriqlardan uzoq turadi” [10, B. 161]. Usmon Azim she’riyati ham chuqr ma’noga ega falsafasi, tiniq tashbehlari bilan ustoz O. Sharafiddinov aytganlaridek balandparvoz hayqiriqlardan yuqorida. Shoirning lirik qahramoni olomonga jasorat, o‘zlikni anglash neligini ko‘rsatishdan avval, o‘zi o‘sha jasoratni ich-ichidan his etadi, o‘zligini anglab yetadi. Har qanday qo‘rquv va yolg‘ondan yuz o‘girgan inson o‘zi va buguni uchun yashaydigan olomondan yuqoridadir. Shoirni chuqr o‘yga toldirgan ijtimoiy-siyosiy muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki boshqa san’at turiga murojaat qilishi orqali berishi she’riyatda yangi bir bosqich boshlanganini ko‘rsatadi va asarning qiymatini yuksaltiradi.

### **Adabiyotlar:**

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. 1- jild. – T. : G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T. : G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – B. 47.
3. Oripov A. Tanlangan asarlar. 2-jild. – T. : G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 20001.
4. Qosimov Y. O‘zbek she’riyatida poetik fikrning yangilanish jarayoni. Filol. fan. nom. diss. – Toshkent, 1993. – B. 15.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent, Akademnashr, 2018.
6. Quronov S. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida sintez muammosi (she’riyat va rangtasvir san’atlari misolida). Nomzodlik dissertatsiyasi. – B. 55.
7. Usmon Azim. Jimlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi, 2012. – B. 130.
8. Usmon Azim Tanlangan asarlar I. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – B. 183.
9. Xurshid Davron Bolalikning ovozi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – B. 9.

<sup>10</sup> Usmon Azim Jimlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi, 2012. – B.130.



10. Sharafiddinov O. Talant – xalq mulki. Toshkent: Yosh gvardiya, 1979. – B. 161.
11. Shavkat Rahmon Abadiyat oralab. – Toshkent: “Movarounnahr” nashriyoti, 2012. – B. 265.
12. Cho‘lpon. Asarlar. 1-jild. – T. : Akademnashr, 2013. – B. 120.
13. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot VA san’at nashriyoti, 1991. – B. 518
14. Белинский В. Г. Танланган асарлар. – Т. , 1995. – Б. 184-185.
15. Лессинг Г. Э. Лаокоон, или о границах живописи и поэзии. – Москва: Государственное издательство Художественной литературы, 1957. – С. 67.
16. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/richard-bax-oqcharloq-jonatan-livingston.html>
17. <https://youtu.be/dDQtW5NTcm8?si=ot2361ys4pcfsAkA>

